

Humans Market'da smartfon xarid qilinganda, «Super VIP» Tarifini ulash uchun bonus» Aksiyasi qoidalari

«Humans Market'da smartfon xarid qilinganda, «Super VIP» Tarifini ulash uchun bonus» Aksiyasi (keyingi o'rinlarda - Aksiya) «Humans» MChJ tomonidan o'tkazilmoqda (100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh. Maxtumquli ko'ch., 2 B uy, STIR 306624856) va noma'lum shaxslar gurugiga yo'naltirilgan.

1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1. Ushbu Qoidalarda ishlatilgan bosh harf bilan yozilgan so'zlar atamalardir. Atamalarning ma'nolari Provyder tomonidan tasdiqlangan Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlarida va www.humans.uz saytida joylashtirilgan Shartlarda, "Humans Market" marketpleysi Qoidalarida, shuningdek Tariflar va Humans Sodiqlik dasturi tavsifida keltirilgan, agar ushbu Qoidalarda boshqa ma'no keltirilgan bo'lmasa.

1.2. Aksiya ishtirokchilari - «Humans Market» marketpleysidagi istagan Sotuvchidan istagan smartfonni xarid qilgan va ushbu Qoidalarning 2-bo'limida sanab o'tilgan boshqa harakatlarni amalga oshirgan «Humans Market» marketpleysi xaridorlari.

1.3. Aksiya o'tkazilish hududi: O'zbekiston Respublikasi.

1.4. Aksiya o'tkazilish davri: 09.07.2024, aksiya muddatsiz amal qiladi.

2. Aksiya tavsifi

2.1. Aksiya o'tkazilishi davrida Aksiya Ishtirokchisining istagan sotuvchidan "Humans Market" marketpleysida smartfon sotib olganidan so'ng ertasi kuni Keshbek hisobiga 45 000 bonus beriladi.

2.2. Ishtirokchi o'zining Keshbek hisobida to'plangan Bonuslarni "Super VIP" tarif paketiga ulanish uchun 30 kunlik hisob-kitob davriga sarflashi, Humans sodiqlik dasturining boshqa ishtirokchisiga o'tkazishi yoki o'z xohishiga ko'ra Humans sodiqlik dasturiga binoan foydalanishi mumkin.

2.3. Agar Ishtirokchi "Humans Market" marketpleysida smartfon xaridini bekor qilsa, hisoblangan Bonuslar bekor qilinadi, "Super VIP" tarif paketini faollashtirgan Ishtirokchi uning narxini Tariflar shartlariga muvofiq to'lashi shart.

2.4. Bitta Ishtirokchi butun aksiya muddati davomida faqat bir marta Aksiyada qatnashishi mumkin.

3. Yakuniy qoidalar

3.1. Ushbu Qoidalar Provyayder saytida joylashtirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi. Provyayder bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarni o'zgartirishga yoki bu haqida Saytda tegishli xabarni joylashtirish orqali Aktsiyani bekor qilishga haqli. Xabar berish sanasi tegishli ma'lumotlarning Saytda joylashtirilgan sanasi hisoblanadi. Saytda tegishli ma'lumotlar joylashtirilgan paytdan boshlab qoidalar o'zgartirilgan deb hisoblanadi va Aksiya bekor qilinadi.

3.2. Aksiya davrida ushbu Qoidalarning 2.1. bandi shartlariga muvofiq «Humans Market» marketpleysida smartfon xarid qilgan jismoniy shaxslarga qaratilgan taklif bo'lgan ushbu Qoidalarga to'liq va so'zsiz rozilikni bildiradi.